

4-dars. Qavsli ifodalarda arifmetik amallarning bajarilish tartibi



1. Ko'paytirishni **qulay usulda** bajaring. Javoblarga mos harflarni berilgan tartibda joylashtiring va O'zbekistondagi mashhur sayyohlik shaharlaridan birining nomini toping.

O $6 \cdot 5 \cdot 700$

R $6 \cdot 5 \cdot 5$

S $90 \cdot 4 \cdot 5$

B $4 \cdot 5 \cdot 17$

X $7 \cdot 4 \cdot 25$

U $11 \cdot 2 \cdot 2 \cdot 25$

340

1 100

700

21 000

150

21 000



2. Ifodalarning qiymatini **amallarning bajarilish tartibiga rioya qilgan holda** hisoblang.

a) $721\,000 - 3\,809 \cdot 9 + 9\,824$

b) $6\,806 \cdot 7 + 85\,403 \cdot 8 - 39\,845$

Qavsli ifodalarda avval qavs ichidagi amallar bajariladi. Keyin chapdan o'ngga qarab tartib bilan ko'paytirish va bo'lish, so'ngra esa xuddi shu tartibda qo'shish va ayirish amallari bajariladi.

$$\begin{array}{ccccccc} \textcircled{1} & \textcircled{3} & \textcircled{5} & \textcircled{4} & \textcircled{2} & & \\ (25 - 4) : 7 + 5 \cdot (12 - 3) = 21 : 7 + 5 \cdot 9 = 3 + 45 = 48 \\ \underline{21} & & \underline{9} & & \underline{3} & \underline{45} & \end{array}$$



3. **Amallarning bajarilish tartibini** belgilang va ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $45\,302 + (442 : 2 + 503) - 7 \cdot (999 - 845)$

b) $2\,403 : 3 + (145 : 5 - 9) - (495 : 5 - 13)$



4. Sayyoh muzlatkich uchun har biri 18 000 so'mdan 6 ta magnit va har biri 23 000 so'mdan 4 ta haykalcha sotib oldi.

a) U xarid uchun necha so'm to'ladi?

b) Agar sayyohda 500 000 so'm bo'lgan bo'lsa, uning qancha puli qoldi?



5. Jadvallarni to'ldiring.

ko'paytuvchi	70	?	9	90	30	5
ko'paytuvchi	3	8	?	4	?	50
ko'paytma	?	400	630	?	900	?
bo'linuvchi	630	560	?	720	100	360
bo'luvchi	90	?	800	?	?	360
bo'linma	?	8	3	90	100	?



6. Ifodalar tuzing va ularning qiymatini hisoblang.

a) Yozda tog'dagi sanatoriylarda 36 072 nafar, shahardagi sanatoriylarda esa undan 3 marta kam sayyoh dam oldi. Yozda sanatoriylarda jami necha nafar sayyoh dam olgan?

b) Sayyoh tog'da 3 hafta, ko'l bo'yida esa undan 4 kun kam dam oldi. U jami necha kun dam olgan?



7. Sayyohlar guruhida 100 nafar sayyoh bor. Ulardan 35 nafari nemis tilini, 30 nafari fransuz tilini, 41 nafari esa ingliz tilini biladi. Sayyohlardan 8 nafari ingliz va fransuz tillarini, 6 nafari nemis va ingliz tillarini, 4 nafari esa fransuz va nemis tillarini biladi. **2 nafari** uchala tilni ham biladi. Necha nafar sayyoh bu tillarning birortasini ham bilmaydi?



8. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $(1\,245 : 5 + 48) + 5 \cdot (452 : 2 - 3)$

b) $235 \cdot 7 + (420 : 5 - 49) - (426 + 130) : 2$

9. Masala tuzing va uni yeching.

Inglizlar – 85 792 nafar

Xitoyliklar – ? nafar, 17 038 nafar ko'p

Rossiyaliklar – ? nafar, 3 marta ko'p

(?) nafar

